


Akademik Baxtiyor Ibragimov hamda iqtidorli yoshlari o'rtasida onlayn suhbat bo'lib o'tdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasi tashkil qilindi. Loyihaning asosiy maqsadi Fanlar akademiyasida faoliyat yuritib kelayotgan akademiklar bilan iqtidorli yoshlarning o'zaro muloqotini yo'lga qo'yish va ularni ilm-fanga qiziqtirish, ilm-fan sohasidagi eng muhim vazifalar va yechimini kutayotgan masalalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishdan iborat.

Joriy yil 2 iyun kuni Xorazm viloyati Xiva shahridagi Prezident maktabi o'quvchilari bilan onlayn suhbat Zoom platformasi orqali bo'lib o'tdi. "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasining ilk mehmoni — O'zR FA vitse-prezidenti, akademik Baxtiyor Ibragimov bo'ldilar va ular "Supramolekulyar kimyo maktabining yaratilishi" mavzusida suhbat o'tkazdilar.



Onlayn suhbatda o'quvchilar bugungi kunda dolzarb bo'lgan ilmiy-tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishdi hamda ta'lim dargohida kimyo va biologiya fanlaridan olayotgan bilimlarini amaliyotda joriy etish usullari to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi.